



## **MADANIY GLOBALLASHUV MUAMMOLARI VA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**

**Yuldasheva Zubayda**

Termiz davlat pedagogika instituti falsafa va  
ma'naviyat asoslari kafedrasi o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6796398>

### **ARTICLE INFO**

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 05<sup>th</sup> July 2022

### **KEY WORDS**

*Globallashuv, milliy qadriyat, ommaviy madaniyat, megajamiyat, A. Shveyser, U.Bek, S.Hantington, D.Kalandiya, A. Appadurai.*

G'arb faylasufi Alber Shveyser: "Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi - ma'naviyat va ahloq. Qolgan barchasi ozmiko'pmi ikkinchi darajali", - degan edi. Insoniyat tarixiga, hususan, bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan voqealarga diqqat bilan nazar tashlansa, bu fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q.

Albatta, hozirgi davrda globallashuv jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tehnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikasiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, tehnik hamda odamlar hayoti uchun zarur ahborotni yig'ish va taqsimlash, mehnat unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Bular, o'z navbatida, mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuviga, jahon iqtisodiyoti tizimiga integrasiyalashuvi jarayonlarini

### **ABSTRACT**

*Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va muammolari, milliy qadriyatlar va ularning asl mohiyatini saqlash bo'yicha bir qator tahliliy mulohazali fikrlar bayon etilgan.*

faollashtirishga xizmat qilmoqda. Ammo o'zgarib borayotgan dunyo mantiqining chuqur mazmun-mohiyatini, hozirgi dunyoda vujudga kelayotgan ihtilof va ziddiyatlarning sabablarini to'g'ri aniqlash uchun ijtimoiy rivojlanishning asosiy tomirini belgilash zarur. Bu, avvalo, madaniyat va uning bosh o'zagi bo'lgan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlardir. Bu borada nemis olimi U.Bek "Globallashuv nima?" kitobida "hozirgi dunyoni, uning inqiroz va olg'a siljishlarini "madaniy siyosat", "madaniy kapital", "madaniy o'ziga xoslik", "madaniy gomogenlik", etnik, irqi va jinsiy mansublik kabi tayanch so'zlar bilan ifodalanadigan voqealarning mazmuniga e'tibor qilmasdan, tushunish mumkinligi" haqidagi fikr hamda qarashlarni bema'nilik deb ataydi. Bugungi kunda ular har qanday mamlakat, hususan, O'zbekiston uchun ham olg'a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma'naviy-ahloqiy



sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga bo'lgan umid tayanchini tashkil etadi.

Inson hayoti va faoliyatining barcha jabxalarini qamrab olgan globallahuv jarayonlari butun insoniyat tamadduni va madaniyatida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Gruzin olimi I.D.Kalandiya bu borada shunday deydi: "Aslini olganda, garchi globallahuv umumjahon tamadduni tarihiy taraqqiyotining natijasi va yangi bosqichi bo'lgani bilan birga, yangi tamaddunni dunyoga keltirmoqda". Mazkur fikrni davom ettirib, aytish mumkinki, madaniyat va qadriyatlar tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi tamadduniy o'zgarishlarga olib keladi.

Madaniyat, ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan xodisa sifatida, odamning, odamlararo munosabatlarning insoniylashuvi darajasini belgilaydi. "Agar madaniyat voqe bo'lgan, moddiylashgan qadriyatlар olami ekan, u o'zida qadriyatlarning butun tizimini jamlagan taqdirdagina to'laqonli hodisaga aylanishi mumkin. Agar madaniy dunyoni barpo etishda qadriyatlarning muayyan toifasi e'tiborsiz qoldirilsa, madaniyat muqarrar kemtik bo'lib qoladi, ya'ni moddiy ashyoviy qadriyatlар e'tiborsiz qoldirilsa, u o'z mustahkamligini yo'qotadi yoki unda ma'naviy qadriyatlarning muayyan toifasi inkor etilsa, insoniylik darajasi past (xattoki, insoniylikka zid) bo'ladi. Mazkur tipdag'i madaniyatga ega bo'lgan jamiyatlarda ma'naviyatsizlik hukm suradi". Buning natijasida xalq, millat, jamiyat va ohir-oqibat davlat barbod bo'ladi. Shunday ekan, Birinchi Prezident I.A.Karimovning: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni

rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi", - deya ta'kidlangani beziz emas edi va O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan hamonoq, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarni tiklash davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biri deb belgilangani tarihiy tajribaga tayangan, chuqur asoslangan qadam bo'ldi.

Ma'naviyat insoniy munosabatlar dunyosini shakllantiradi, ularning tayanch asoslarini belgilaydi. O'z navbatida, har bir inson o'z hayotida qaysi yo'lni tanlashi ko'p jihatdan, uning qanday hislatlarga ega ekanligiga, uning qalbidan o'rin olgan qadriyatlarga boqliq.

Yuqoridagi mulohazalar garchi bevosa globallahuv jarayonlariga aloqasi yo'qdek tuyulsa-da, lekin globallahuvning bugungi hayotdagi o'rni, u keltirib chiqarayotgan ziddiyatlarni to'g'ri anglashga yordam beradi.

Globallashuv, hususan uning asosiy belgilari va harakatga keltiruvchi kuchlaridan biri internet yoki boshqa eng zamонавијah borot vositalari inson tabiatidagi yahshi yoki yomon, yuksak yoki tuban hususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Ammo ular yangi odamni, ya'ni muayyan etnos, millat, madaniyatdan tashqari bo'lgan odamni dunyoga keltira olmaydi. Shuning uchun ayrimlarning yaqin orada madaniyatlarning to'liq integrasiyalashuvi, ya'ni yagona dunyo madaniyatining shakllanishi xatto, millat va xalqlarning allaqanday yagona "super-ethnos" yoki "megajamiyat"ga aylanishi haqidagi orzularining amalga oshishi haqiqatdan yiroqdir.

Globallashuv sotsiologiyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida uning madaniyatdagi ifodasi va oqibatlarini o'rganish etakchi yo'nalishni



tashkil etayotgani behudaga emas. Birinchilardan bo'lib bu masalaga Arhun Appadurai e'tibor qaratdi: «Bugungi kundagi global munosabatlarning asosiy muammosi, - deb yozadi u, - madaniy gomogenizasiya bilan madaniy geterogenizasiya o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvidir».

Insoniyatning buguni va kelajagi haqida fikr yuritayotgan olimlar ichida madaniyat (tamaddun)lar o'rtasidagi farqni absolyutlashtirib, ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etib bo'lmasligi haqida gapirayotganlar ham bor. Hususan, o'z paytida amerikalik olim S.Hantingtonning «Tamaddunlar to'qnashuvi» kitobi katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Bu kitobida u tamaddunlar o'rtasidagi kurash kundankun avj olishi, yagona insoniyat haqida gap bo'lishi mumkin emasligi va XXI asr tamaddunlar o'rtasidagi to'qnashuv asri bo'lishi haqidagi fikrni ilgari suradi . “Mening fikrimcha, - yozadi u, - tug'ilayotgan mafkura ham, iqtisod ham ziddiyatlar manbai bo'lmaydi. Insoniyatni ajratib turadigan eng muhim chegara va to'qnashuvlarning asosiy manbaini madaniyat belgilaydi. Millat - davlat halqaro ishlaringin bosh ishtirokchisi bo'lib qoladi, biroq global siyosatning eng jiddiy ihtiloflari turli tamaddunlarga tegishli bo'lgan millat va guruhlar o'rtasida sodir bo'ladi. Tamaddunlar to'qnashuvi jahon siyosatining asosiy omiliga aylanadi. Tamaddunlar o'rtasidagi bo'linish chiziqlari ayni kelajakdagi frontlarning chiziqlaridir”.

S.Hantington har qanday tamaddun (madaniyat)ning o'zagini din tashkil etishi va diniy e'tiqod halqlar ongida eng chuqr ildiz otgan, turg'un ekani haqidagi g'oyaga tayanadi. Shu asosda u navbatdagi jahon urushi, agar u sodir bo'lsa, asosan, diniy

e'tiqodlardagi ziddiyatlar zaminidagi urush bo'lishini bashorat qiladi. Rossiyalik olim F.H.Kassidi S.Hantington fikriga to'liq qo'shilmasa-da, shunday fikrlaydi: “Fikrimizcha, - yozadi u, - agar urush sodir bo'lsa, u etnik urush bo'ladi. har holda hozirgi lokal to'qnashuvar, harbiy harakatlar va ziddiyatlarning aksariyat ko'pchiligi etnik hususiyatga ega. Aks holda, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlari borayotgan, jahon kommunikatsiya tizimi shakllanayotgan, atrof muhitni asrash bo'yicha hamkorlikda harakatlar kengaygan bir sharoitda etnik va separatizm tendensiyalarining kuchayishini (masalan, Basklar mamlakatida, Tog'li Qorabog', Abhaziya, Checheniston, Kurdiston va boshqa hududlarda) tushuntirish qiyin bo'ladi”.

Yuqorida tahlil va mulohazalar asosida hulosa qilish mumkinki, bugungi kundagi globallashuv jarayonlarining asosiy muammolaridan birini madaniyatlararo muloqot masalalari tashkil etadi. Jahon madaniyatida ro'y berayotgan va “madaniy inqilob” tusini olayotgan o'zgarishlarning natijasi o'laroq ikki, bir-biriga zid, bir paytning o'zida bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq harakat yuzaga keldi. Bular: kishilik madaniyatining rang-barangligini inkor etish asnosida madaniy unifikasiyalash (birlashtirish)ga harakat va uning ortida yashiringan maqsadlarga qarshilik asnosida boshlangan madaniy identifikasiyalash (ajralish), aniqrog'i, davlat va halqlar tomonidan madaniy o'ziga hosliklarni saqlab qolishga intilish.

Unutmaslik lozimki, bugungi kundagi jahon tarihi - taqdiri umumiy bo'lgan Yer kurrasidagi barcha halq, mamlakat va hududlarni o'z ichiga olgan



umumtamaddun oqimidir. Bu oqimga ular o'z noyob madaniyati, an'analar, betakror tarihiy tajribasi bilan qo'shiladi. Bu qarama-qarshilik asosidagi birlik aslida

dunyo yahlitligini tashkil etadi, uning boyligini ifodalaydi, uning doimiy harakatda bo'lgan murakkab tizim sifatidagi yashovchanligini belgilaydi.

### References:

1. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма — ответы на глобализацию. -М., Прогресс-Традиция, 2001. -91-92-betlar.
2. Каландия И.Д. Культура в процессе глобализации// Россия и Грузия: диалог и родство культур. Сборник материалов симпозиума. Вып. 1. – СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2003. -153-bet.
3. Чавчавадзе Н.З. Феномен бездуховности. – Тбилиси, 1991. -24-bet.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T., O'zbekiston, 1998.-5-bet.
5. Appadurai A. Dsjuncture and difference in the global cultural economy. //Robertson R. White K.E. (Ed.) Globalisation. Critical concept in sociologi. Volume 1, London, 2003, - 251-264-betlar.
6. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка// Новая постиндустриальная волна на Западе. – М., 1999. -41-bet.
7. Манба: журнал “Полис, 1994, № 1. - 33-bet. (<http://www.politstudies.ru>)
8. Кассиди Ф.Х. Глобализация и культурная идентичность// Вопросы философии, 2003. №1. - 79-bet.
9. Meligaliyevich Q. A. NEW UZBEKISTAN IN A NEW NEIGHBORHOOD RELATIONS WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 12-19.
10. Qurbonov A. M. SOME COMMENTS ON THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF THE TEMPLES OF THE BRONZE AGE OF ANCIENT BACTRIA //Builders Of The Future. – 2022. – Т. 2. – №. 02. – С. 270-276.